

## II. TOSHKENT VILOYATI SANOATINING ASOSIY KO'RSATKICHLARI

2025- yil yanvar-dekabr


1. Toshkent viloyatida faoliyat ko'rsatayotgan va yangi tashkil etilgan sanoat korxonalarini soni
2. Toshkent viloyatida sanoatining asosiy ko'rsatkichlari hududlar kesimida
3. Yirik sanoat korxonalarini tomonidan ayrim turdagi sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish
4. Kichik biznes tadbirkorlik subyektlari tomonidan sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi
5. Sanoat ishlab chiqarishi bo'yicha uslubiy tushuntirishlar

### 1. Toshkent viloyatida faoliyat ko'rsatayotgan va yangi tashkil etilgan sanoat korxonalarini soni

2026- yilning 1- yanvar holatiga ko'ra viloyatda **6 899** ta sanoat korxonalarini faoliyat ko'rsatmoqda, shundan **445** tasi (*faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar umumiy soning 6,4 foizi*) Chirchiq shahriga, **196** tasi (2,8 %) Yangiyo'l shahriga, **989** tasi (14,3 %) Zangiota tumaniga, **597** tasi (8,6 %) Qibray tumaniga to'g'ri kelmoqda.

#### Korxonalar soni

(1- yanvar holatiga ko'ra)



## 2. Toshkent viloyatida sanoatining asosiy ko'rsatkichlari hududlar kesimida

Dastlabki ma'lumotlar bo'yicha 2025- yilning yanvar-dekabr oylarida viloyat korxonalarini tomonidan jami **170 294,1** mlrd so'mlik sanoat mahsulotlari ishlab chiqarilgan bo'lib, 2024- yilning mos davriga nisbatan sanoat ishlab chiqarishining fizik hajmi indeksi **106,6** % ni tashkil etdi.

	<b>Hajmi, mlrd so'm</b>	<b>Fizik hajm indeksi, % da</b>
<b>Toshkent viloyati</b>	<b>170 294,1</b>	<b>106,6</b>
<i>shaharlar:</i>		
Nurafshon	4 713,2	107,4
Olmaliq	54 816,5	108,3
Angren	9 102,5	109,6
Bekobod	7 562,9	93,4
Ohangaron	6 726,7	109,3
Chirchiq	17 879,5	106,7
Yangiyo'l	1 238,2	105,8
<i>tumanlar:</i>		
Oqqo'rg'on	1 006,6	110,4
Ohangaron	9 863,7	107,1
Bekobod	569,8	110,7
Bo'stonliq	3 966,2	107,7
Bo'ka	547,7	106,9
Quyichirchiq	1 936,0	108,1
Zangiota	6 916,2	109,5
Yuqori Chirchiq	4 951,1	112,2
Qibray	12 806,1	104,5
Parkent	1 384,2	108,4
Piskent	1 144,3	110,4
O'rta Chirchiq	2 405,5	112,2
Chinoz	1 222,9	109,5
Yangiyo'l	3 183,0	107,4
Toshkent	4 117,8	109,1


### Aholi jon boshiga to'g'ri keladigan sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish

Aholi jon boshiga sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishning taqsimlanishi, yirik sanoat korxonalari joylashganligi hisobiga Olmaliq shahrida (365 543,3 ming so'm), Ohangaron shahrida (158 711,1 ming so'm), Ohangaron tumanida (86 661,3 ming so'm), Qibray tumanida (71 053,3 ming so'm) o'rtacha viloyat darajasi ko'rsatkichidan (54 327,2 ming so'm) sezilarli darajada yuqoriligini ko'rsatmoqda.

Shuningdek, viloyatda aholi jon boshiga sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishning o'sish sur'ati 104,8 % ni tashkil etgan bo'lsa, Angren shahrida – 107,9 %, Olmaliq shahrida – 106,7 %, Ohangaron shahrida, – 107,5 %, Oqqo'rg'on tumanida – 108,8 %, Piskent tumanida – 108,6 % ni tashkil etib, viloyat ko'rsatkichidan ancha yuqori natija qayd etilmoqda.

### Aholi jon boshiga sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi

(yanvar-dekabr oylarida)




### Sanoat ishlab chiqarishining asosiy tarmoqlari

2025- yilning yanvar-dekabr oylarida sanoat ishlab chiqarishi tarkibida eng katta ulush qayta ishlash sanoati hissasiga to'g'ri kelib **147 338,7** mlrd so'mni, jami sanoat ishlab chiqarishidagi ulushi **86,5** % ni tashkil etgan holda tog'-kon sanoati va ochiq konlarni ishlashda **7 395,9** mlrd so'm (4,3 %), elektr gaz bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalashda **14 943,4** mlrd so'm (8,8 %) hamda suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilizatsiya qilishda **616,1** mlrd so'm (0,4 %)ni tashkil etdi.

**Sanoatning asosiy seksiyalari bo‘yicha ishlab ishlab chiqarish hajmi,  
jami sanoat ishlab chiqarish hajmidagi ulushi, fizik hajm indeksi**  
(2025- yilning yanvar-dekabr oylarida)

- B** - Tog‘-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash  
**C** - Ishlab chiqarish sanoati  
**D** - Elektr gaz bug‘ bilan ta‘minlash va havoni konditsiyalash  
**E** - Suv bilan ta‘minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig‘ish va  
utilizatsiya qilish




**3. Yirik sanoat korxonalari tomonidan ayrim turdagi sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish**

2025- yilning yanvar-dekabr oylarida viloyatda **26,1** ming tonna kalava ip (2024- yilning yanvar-dekabr oylariga nisbatan 23,1 % ga ko‘paygan), **13,7** ming litr etil spirti (23,4 % ga ko‘paygan), **67,1** ming tonna o‘simlik yog‘i (86,9 % ga ko‘paygan), **198,2** ming tonna un (15,5 % ga kamaygan), **113,9** ming tonna shakar (57,5 % ga kamaygan ) hamda **1 963,8** ming tonna sement klinkerlari (51,1 % ga ko‘paygan) ishlab chiqarilgan.


Sanoat mahsulotlari	2023- yil yanvar-dekabr	2024- yil yanvar-dekabr	2025- yil yanvar-dekabr
Kalava ip, ming t	16,6	21,2	26,1
Etil spirti, ming l	9,2	11,1	13,7
O‘simlik yog‘i, ming t	23,4	35,9	67,1
Un, ming t	258,5	234,5	198,2
Shakar, ming t	366,0	267,8	113,9
Sement klinkerlari, ming t	994,9	1 300,3	1 963,8

### Chet el investitsiyalari ishtirokidagi korxonalar mahsulotlarining sanoat ishlab chiqarishdagi ulushi, % da

2025- yilning yanvar-dekabr oylarida viloyatda xorijiy investitsiyalar ishtirokidagi korxonalar tomonidan **31 449,5** mlrd. soʻmlik mahsulot ishlab chiqarildi. Jumladan, jami sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishdagi ulushi **18,4 %** ni (2024- yil yanvar-dekabr oylarida – 16,2 %) tashkil etdi.



### Ishlab chiqaradigan sanoatning texnologik tarkibi va ulushi, foizda



Oʻtgan yilning mos davri bilan solishtirganda ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida yuqori texnologiyali tarmoqning ulushi 1,1 % ni (2024- yilning yanvar-dekabr oylarida 1,0 %), oʻrta-yuqori texnologiyali – 9,1 % (7,5 %), oʻrta-quyi texnologiyali – 54,7 % (51,3 %), quyi texnologiyali 19,3 % (17,1 %) ni tashkil etgan.

### Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash sohasida sanoat korxonalarini tomonidan sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish hajmi

2025- yilning yanvar-dekabr oylarida o'tgan yilning mos davriga nisbatan elektr energiya ishlab chiqarish 92,3 % ni, issiqlik energiyasi ishlab chiqarish esa 93,9 % ni tashkil etdi.

Sanoat mahsulotlari	2023- yil yanvar-dekabr	2024- yil yanvar-dekabr	2025- yil yanvar-dekabr
Jami ishlab chiqarilgan elektrenergija, mln.kvt.s	16587,7	16678,1	18380,6
Issiqlik energiyasi, ming gkal	2427,2	2599,0	2938,7

### Suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilizatsiya qilish korxonalarini tomonidan sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish hajmi


O'tgan yilning mos davriga nisbatan to'qimachilik chiqindilarida 28,9 % ga ko'payish, oqova suvlarni yo'qotish, transportirovka qilish va ishlov berish bo'yicha xizmatlarda 10,8 % ga ko'payish kuzatildi. Shuningdek, axlat o'ralarni, tindirgichlarni va septiklarni bo'shatish, tozalash va ishlov berish bo'yicha xizmatlarda 6,1 % ga ko'payish kuzatildi.

Sanoat mahsulotlari	2023- yil yanvar-dekabr	2024- yil yanvar-dekabr	2025- yil yanvar-dekabr
Oqova suvlarni yo'qotish, transportirovka qilish va ishlov berish bo'yicha xizmatlar, mlrd. so'm	104,6	154,2	328,2
Xavfsiz chiqindilarni yig'ish bo'yicha xizmatlar- mlrd. so'm	67,3	82,1	120,6

### 4. Kichik biznes tadbirkorlik subyektlari tomonidan sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi

Hisobot davrida kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan 45 608,0 mlrd so'mlik sanoat mahsuloti ishlab chiqarilib, uning umumiy ishlab chiqarish hajmidagi ulushi 31,8 % ni tashkil etdi. 2024-yilning yanvar-dekabr oylarida kichik biznes subyektlarining umumiy ishlab chiqarishdagi ulushi 29,8 % ni tashkil etgan.

#### Kichik biznes (tadbirkorlik) hajmi va ulushi (yanvar-dekabr)



## 5. Sanoat ishlab chiqarishi bo'yicha uslubiy tushuntirishlar

**Sanoat bu** – xom-ashyoni qayta ishlash, yer osti boyliklarini o'zlashtirish, ishlab chiqarish vositalari va xalq iste'moli mollarini yaratishni qamrab oluvchi ishlab chiqarish tarmog'i.

**Sanoat ishlab chiqarishi hajmi** to'g'risidagi ma'lumotlarni mahsulot turlari bo'yicha shakllantirish O'zbekiston Respublikasi iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha mahsulotlarning (tovarlar, ishlar, xizmatlarning) statistik tasniflagichi (O'zDSt 2914:2014) kodlaridan foydalangan holda amalga oshiriladi. Sanoat bo'yicha statistika ma'lumotlari quyidagilar asosida shakllantiriladi: a) sanoat mahsulotlari ishlab chiqaruvchi yuridik shaxslarning statistika hisobotlari (oylik, yillik) ma'lumotlari asosida; b) kichik korxonalar, mikrofirmalarning choraklik tanlanma kuzatuvlari natijalari asosida; d) ishlab chiqarish faoliyati bilan shug'ullanuvchi yakka tartibdagi tadbirkorlik sub'ektlarining choraklik tanlanma statistika kuzatuv ma'lumotlari; e) uy xo'jaliklari kuzatuv materiallari.

**Sanoat ishlab chiqarishining fizik hajmi indeksi** ishlab chiqarilgan mahsulotlar (ishlar, xizmatlar) hajmining taqqoslanadigan davrlardagi o'zgarishini tavsiflovchi nisbiy ko'rsatkichdir.

**Fizik hajm indeksini hisoblash** deflyatorlash usuli orqali amalga oshiriladi. Hisoblash mahsulot (ish, xizmatlar) ishlab chiqarishning qiymat ko'rinishdagi dinamikasi to'g'risidagi ma'lumotlarga asoslanib, keyinchalik alohida indekslar iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha yiriklashtirilgan indekslarga bosqichma-bosqich agregatsiyalanadi. Sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish fizik hajm indeksini deflyatorlash usuli bilan hisoblashning afzalliklari: bu usul indeksga turli xil tovarlar guruhlariga kirishga imkon beradi; statistik tanlab olingan narxlardan tegishli tovarlar guruhining vakili sifatida foydalanish mumkin; deflyatorlash usuli ishlab chiqarilayotgan mahsulotdagi sifatli o'zgarishlarni hisobga olishga imkon beradi. Sanoat ishlab chiqarishi fizik hajmining yig'ma indeksi, bazis yilning qo'shilgan qiymat tuzilmasiga qayta hisoblangan seksiyalar bo'yicha indeks ko'rsatkichlarini agregatsiyalash orqali aniqlanadi.